

**KUN TARTIBI:**  
**Reklama bozorini rivojlantirishning yangi bosqichlari**  
**mavzusida ochiq muloqot**

---

*(Sh.Sharaxmetov, N.Xolbo‘tayeov, A.Qayumov, A.Xen,....., Sh.Sharaxmetov)*

O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi “Reklama bozorini rivojlantirishning yangi bosqichlari” mavzusida ochiq muloqot tashkil etildi.

Mazkur davra suhbatida O‘zbekiston reklama industriyasi milliy uyushmasining **42 ta a‘zolari**, O‘zbekiston marketing uyushmasining **17 ta a‘zolari**, **27 ta** tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) egalari, **35 ta** reklama agentliklari, **23 ta** reklama beruvchi va tarqatuvchilar, grafik dizayn va animatsiya studiyalari, kreativ soha vakillari, **jami** tadbirda **144 kishi ishtirok etdi**.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PF-108-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonining 3-bandiga muvofiq, **“Biz sizni eshitamiz!”** loyihasi joriy etilgan va ushbu loyihaning asosiy maqsadi tarmoqdagi tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, raqobatga to‘siq bo‘layotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish tizimini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Tadbir boshida Raqobat qo‘mitasi raisi **Sh.Sharaxmetov** davrani ochib berdi, tashqi reklamani joylashtirish munosabatlarini tartibga solish, ushbu sohada tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoitlar yaratish, faoliyatni raqamlashtirish, elektron davlat xizmatlarini joriy qilish, yig‘imlarni optimallashtirish zaruriyatini birinchi maqsad ekanligini alohida ta‘kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti direktori **N.Xolbo‘tayeov** tomonidan Tashqi yozuvlar, xususan, peshlavha, reklama va boshqa e‘lonlar, axborot matnlarining davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta‘minlash to‘g‘risida so‘zga chiqdi.

Shundan so‘ng, Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi o‘rinbosari **A.Qayumov** tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 428-sonli qarori mazmun-mohiyati haqida batafsil tushuntirish berildi.

Toshkent shahar hokimi o‘rinbosari – Raqamli rivojlantirish departamenti direktori **A.Xen** tomonidan “Tashqi reklama” raqamli monitoring elektron tizimining qulayliklari va imkoniyatlari haqida to‘xtalib o‘tildi.

Reklama sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonunining yangi tahrirda va zamon talablariga mutanosib ravishda qabul qilinishi, ushbu sohada mavjud bo‘lgan bir qator kamchiliklarning bartaraf etilishiga olib keldi.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizning tashqi reklama sohasida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolayotgan edi.

Reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish masalalarida inson omili aralashuvini qisqartirish va ma‘muriy tartib-taomillar kamaytirish, tashqi reklama bozorining ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda sohaga oid munosabatlarni raqamlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi “Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 428-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning asosiy maqsadi tarixiy-shaharsozlik muhiti va tuman (shahar)larning mavjud binolari me‘moriy qiyofasini saqlab qolish, reklama konstruksiyalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishni tartibga solishni raqamli nazorat

qilish, tashqi reklama sohasining barcha ishtirokchilari uchun teng huquqlarni ta'minlaydigan tamoyillar va shartlarni shakllantirishdan iborat.

Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-dekabrga qadar tashqi reklama bozori ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish hamda sohada shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan "Tashqi reklama" raqamli monitoring elektron tizimi joriy etiladi;

tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) va ularning egalarining yagona elektron reyestri yuritiladi;

tashqi reklama va axborot obyektini (konstruksiyasini) o'rnatish va unda reklamani joylashtirishga bo'lgan huquq uchun shartnomalar ommaviy oferta shaklida elektron tarzda tuziladi va reklama joyining pasporti elektron shaklda beriladi;

barcha to'lovlar, shu jumladan oylik yig'im billing tizimi orqali amalga oshiriladi;

tashqi reklama va axborot obyektlari (konstruksiyalari) joylashgan joyi (geolokatsiyasi), uning egasi, o'lchami, turi, pasport raqami va boshqa ma'lumotlarni onlayn tarzda kuzatib boriladi hamda reklama to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi holatlari aniqlaganda, bu haqda vakolatli davlat organiga elektron shaklda xabar beriladi.

reklama sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonunining yangi tahririda va zamon talablariga mutanosib ravishda qabul qilinishi, ushbu sohada mavjud bo'lgan bir qator kamchiliklarning bartaraf etilishiga olib keldi.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizning tashqi reklama sohasida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolayotgan edi.

Reklama va axborot obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish masalalarida inson omili aralashuvini qisqartirish va ma'muriy tartib-taomillar kamaytirish, tashqi reklama bozorining ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar yaratish hamda sohaga oid munosabatlarni raqamlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorning asosiy maqsadi tarixiy-shaharsozlik muhiti va tuman (shahar)larning mavjud binolari me'moriy qiyofasini saqlab qolish, reklama konstruksiyalarini o'rnatish va ulardan foydalanishni tartibga solishni raqamli nazorat qilish, tashqi reklama sohasining barcha ishtirokchilari uchun teng huquqlarni ta'minlaydigan tamoyillar va shartlarni shakllantirishdan iborat ekanligi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

**1. O'zbekiston reklama industriyasi milliy uyushmasi raisi A.Yuldashev:** Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 428-sonli qarorning mazmun-mohiyati bo'yicha respublika hududlarida hokimliklar, mutasaddi davlat organlari, shu jumladan Raqobat qo'mitasining hududiy organlari mas'ul xodimlari, reklama bozori ishtirokchilari o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

Qarorda belgilangan talablar, maqsad va vazifalarni amalga keng targ'ib qilish maxsus qo'llanmalar (broshyura, flayer) va elektron materiallar tayyorlash hamda ularni jamoatchilik va tadbirkorlarga yetkazish;

Reklamani davlat tili qoidalariga mosligini ta'minlash hamda qonunchilik talablarini to'g'ri qo'llash yuzasidan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida tushuntirish va profilaktika tadbirlarini tashkil qilish bo'yicha taklif berdi.

**2. "Media Baza" MChJ rahbari N.Raxmatullayev:** Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiylarini) xatlovdan o'tkazishda tashqi reklama bozori subyektlari manfaatlarini ifoda etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ishtirokini ta'minlashni tavsiya qildi.

**3. "Gelikon Media Group" MChJ rahbari I.Kuchmar:** Qo'mita hamda tadbirkorlik subyektlari va tashqi reklama bozori subyektlari manfaatlarini ifoda etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida samarali hamkorlikni yanada rivojlantirishni so'radi.

**4. "USSO Design" MChJ QK Yu.Pak:** Amalda reklama joyining pasporti bir necha tadbirkorlik subyektlari nomiga qayta rasmiylashtirilgan holatlar mavjud. Tadbirkorlarga imkoniyat berish maqsadida ushbu tartibni saqlab qolishni taklif qildi.

**5. O'zbekiston reklama industriyasi milliy uyushmasi raisi A.Yuldashev:** Ayrim hollarda reklama mazmuni bo'yicha ular tashqi reklama vositalari orqali joylashtirilgandan so'ng jamoatchilik va davlat organlarida e'tirozlar yuzaga keladi, shu holatlarni oldini olish maqsadida reklama eskizlarini ekspertizadan o'tkazish va ularni barcha tanishishi uchun ochiq elektron bazasini shakllantirish maqsadga muvofiqligi bo'yicha qo'shimcha qildi.

**6. "Media Baza" MChJ ta'sischi G.Chumichev:** Tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish chizmasini ishlab chiqishda tashqi reklamaga qo'yilgan talablar amalda o'rnatilgan reklama obyektlaridan farq qilishi tadbirkorlar uchun ortiqcha xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi;

Shu sababli, tashqi reklama obyektlarini o'rnatish chizmasini ishlab chiqishda mavjud tashqi reklama va axborot obyektlarini, amaldagi formatlarni inobatga olish maqsadga muvofiqligi bildirildi.

**7. Yakka tartibdagi tadbirkor S.Rasulev:** Oxirgi besh yil uchun tashqi reklama bo'yicha tegishli to'lov va yig'implar summasini bir vaqtda to'lanishi tadbirkorlarga qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, yig'implarni jami to'lov miqdori va korxonaning moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda bo'lib-bo'lib to'lash imkonini berish taklif etildi.

**8. Yakka tartibdagi tadbirkor D.Ovsyannikov:** Tashqi reklama bozori ishtirokchilari tomonidan korxonaning rejalashtirish va uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda nazarda tutish uchun tashqi reklama va axborot obyektlarini (konstruksiylarini) o'rnatish chizmasi hamda unga kiritiladigan o'zgartishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tizimli muammolar belgilab olindi hamda asoslantiruvchi ma'lumotlar asosida takliflar ishlab chiqilib, umumlashtirilgan holda